



**Aleksandr Makedonskiyning buyuk yurishlari. Granik jangidagi mashhur
“Axilles sovuti” haqida afsona va haqiqat uyg’unligi.**

Karimov Xusrav

**Andijon Davlat Universiteti Tarix fakulteti Sirtqi talim yo’nalishining 4-kurs
talabasi**

Annotatsiya

Mazkur maqolada Makedoniyalik Aleksandrning hokimyatga qanday kelganligi, Osiyo hududlariga kirib kelishi teatr sahanasidek bo’lanligi, mashhur Granik jangidagi “Axilles zirhi” haqida ma’lumotlar qayt qilingan. Bundan tashqari Iss jangi haqida va Aleksandrning Misraga yurishda qanday qilib misrlik kohinlarni ko’nglidan joy olganligi haqida sharhlar keltirilgan. Nafaqat Doro III ning o’limi, Hindistondagi mashhur janglar va harbiy taktikalar, ajoyib diplomatik aloqalar va kelishuvlar so’ngida qay tariqa o’z poytaxtiga qaytganligi, buyuk sarkardaning vafotiga qadar bo’lgan ajoyib voqealar hamda faktik ma’lumotlar asosida yoritilgan guvohi bo’lasiz. Ushbu maqola oraqali mashhur sarkardani yanada mukammal bilib olishga, bundan tashqari afsona va haqiqatlar uyg’unligini bilib olishingizga yordam beradi.

Kalit so’zlar

Aleksandr Makedonskiy, Fillip II, Aristotel, “Axilles zirhi”, Granik jangi, Iss jangi, Gommer “Illiada”, Gefest, Gavgame jangi, Amon-Ra, Doroning o’limi, Porus va Aleksandr o’rtasida ittifoq, Kichik Osiyoning istilo etilishi, Aleksandr Makedonskiy Misrda, Hindiston va orzuning oxiri, Gidasp jangi, Xeroneya ostonasidagi jang.

Makedoniyalik Aleksandr(356-323). Mil.avv 336-yil otasi Fillip II vafotidan so’ng taxtga o’tiradi. Fillip II ning bir necha xotinlaridan bir qancha farzandlari bo’lgan lekin taxt vorisi sifatida aynan Aleksandr tanlangan. Fillip II Aleksandrni ta’lim tarbiyasiga alohida e’tibor bergan. Xatto unga ustoz sifatida bir necha yunon faylasuflarini hamda o’sha paytda mashhur bo’lgan Aristotelni ustoz qilib tayinlagan. Ular unga o’tmishdagi jasorat ko’rsatgan buyuk ajdodlari kabi bo’lishini, qolaversa ulardan ham buyukroq bo’lishini takidlab aytib o’tishgan. Aleksandr taxtga munosibligini ko’p marotaba isbotlab bergan. Ulardan biri mil.avv 338-yildagi Xeroneya ostonasidagi jangda ham o’zini ajoyibona ko’rsata olgan. Bundan tashqari Fillip II mamlakatda yo’qlik paytlarida ko’tarilgan ayrim qo’zg’alonnarni bostira olgan hamda davlatni boshqara olish qobiliyatlarini ham ko’rsata olgan. Bir so’z bilan aytganda Aleksandr taxt



munosibligini allaqachon hamma bilar, bunga o'zini ham ishonchi komil edi.

Kichik Osiyoning istilo etilishi. Makedoniya mustahkamlangach,

Aleksandr mil.avv.334-yilning bahorida Osiyoga yurish boshladi. Uning armiyasi to'liq 37.000 kishi edi, bundan Makedoniya falanga piyodalari 12.000 nafar, qo'shimcha 3.000 kishilik «qirol gvardiyasi» va 1800 kishilik otliq askarlar edi. Bundan tashqari, Illiriya va Tihrasaning 9.000 ga yaqin yunon piyoda va otliq askarlari ham mavjud edi. Qo'shinlarning transport vositasi bo'lib 200 ta yunon kemalari xizmat qiladi.

Aleksandrning Osiyodagi dastlabki harakatlari xuddi teatr sahnasidagiday bo'ldi. U Osiyo tuprog'iga qadam qo'ygan ilk Makedoniya podshosi bo'ldi. Keyinchalik Aleksandr Troya shahriga bordi, afsonaviy Troya shohi Triamdan Afinani bosib olgani uchun kechirim so'radi va ajdodi Axillesga xurmat ko'rsatdi.[1]

Granik jangi (mil.avv. 334-yil). Forslar Aleksandrni dastlab

hozirgi Turkiya hududida kutib olishdi. Ilk to'qnashuv Granik daryosi,

hozirgi Ko'chabosh bo'yida, Anatoliyaning shimoli-g'arbida bo'ldi.

Bu davrda forslar tomonida yunon yollanma askarlari ham bo'lgan.

Jangda Aleksandr Troyadan Afinaga keltirilgan zirhda tushdi. "Axilles

zirhi" deb nom olgan bu zirh forslarni sarosimaga soldi. Jangda

Aleksandr yaralanib, uning hayotini hamshirasining akasi Klit

qutqarib qoldi. Jangda Aleksandr 2. 000 nafar vatan xoinini qatl

ettirdi, tirik qolganlarini Makedoniyagacha bo'yinlarida zanjir bilan

olib bordi.[1]

Mana shu yerda bitta savol tug'ilda rostdan ham Aleksandar "Axilles zirhi"da janga tushganmi? "Axilles zirhi" o'zi nima? Uni tarixi qayerga borib taqaladi?

Gommerni "Illada" dostonida keltirilishcha Troya urushlari davrida Axilles Gektorga qarshi jangda mahsus zirh va qalqonda janga tushadi. Ushbu zirh va qalqonlar onasi Tetisning iltimosiga ko'ra mabud Gefest tomonidan yasalgan edi.

480."Аввал улкан, махкам калкон ясади у нафис безакли; Теграсига уч кат оппок ва дурахшон гардиш урнатди; Кумушсимон туткич пайванд килди унинг ич томонига. Бешта катлам булди калкон* хар бир катлам доирасида Тангри Хефест куп антика нарсаларнинг тасвирин чизди"

610."Яна Хефест Океанпинг киёси йук иктидорини.Акс эттирди бу калконнинг ост катлами кунтираснда Тангри Хефест махобатли ва мустахам ажиб калко Безаб булгач, алангадан хам пурафшон бир зирх ясади; Ундан кећин



Ахиллеснинг бошига мос, кок чуққисида Олтин тож бор, дабдабали ва сербезак, зил дубулга ҳам;”

615.”Яна Хефест бир жуфт пойзирх' хозирлади юмшок калай Бу олимпик уста ясаб булгач барча совут-силохни Хаммасини Ахиллеснинг волидаси пойига куйди. Шунда она ушбу ажиб куролларни тезрок Уелига Етказмок-чун корли Олими чуққисидан учди лочиндек”.[3]

“Axilles zirhi va qalqoni” shu tariqa paydo bo’lgan. Umuman olib qaraganda Aleksandr ushbu zirh va qalqoni ishlatgani tarixiy isbotlarida keltirilmagan. Troyadagi bo’lgan voqealrni davr nuqtaiy nazrdan hisoblasak, Aleksandr yashagan davr o’rtasida ancha asrlilik farq bor. Troyada bo’lgan voqealarga nazar tashlaydigan bo’lsak bu davrda yasalgan asosiy qurollar bronzadan yasalganligiga guvohi bo’lamiz. Har bir askarda og’ir bronza qurollar, teri bilan qoplangan qalqonlar, og’ir zirhlardan ham foydalangan. Aleksandar davrida esa qurollarning asosiy qismi temirdan va po’latdan yasalganligi, bu qurollar branza qurollariga qaraganda ancha chidamli, yengil, ixcham olib yurish uchun qulay bo’lganligi tadqiqotlar tomonidan asoslangan. Bundan tashqari qurollarning rivojlanish bosqichi Aleksandr zamonida ancha takomillashgan edi. Gommer o’z asarini yozishda ma’lumotlarni qiziqarli va dramatik qilishda mifalogik qarashlardan ham foydalangan.

Nega endi “Axilles zirhi”? Buni harbiy taktika deb atasak bo’ladi. Ya’ni dushman tomoniga Aleksandr “Axilles zirhi”da janga tushishi ma’lum qilinishi bu o’zlarining askarlarni jangchilik ruhiyatiga ijobiy tasir qilardi. Sababi Axilles ham ushbu zirh va qalqon bilan Gektorni ayanchli holda mag’lubiyatga uchratgan edi. O’zlarining sarkardalari mabudlar tomonidan hadiya qilingan ilohiy qurollarida jang qilishi ularni bir tomonidan ilhomlantirgan. Va o’zlarini ham o’sha asfonaviy jang natijasidek g’alaba qozonishgan ishonganlar. Zero,ular mabudlar ular tarafda deya ruhlanganlar. Bu jang haqida deyarli o’sha paytda yaxshagan hamma bilar edi. Vaholanki forslar ham. Aleksandr shundan foydalangan holda harbiy hiyla qildi deb o’ylasak bo’ladi. Forsalarni nazilida ularni ham shunday taqdir kutadi deb o’ylashga majbur qilgan edi. **Iss jangi** (mil.avv. 333-yil). Kichik Osiyo yarimorolida, O’rtayer dengizi shimoli-sharqiy qirg’og’idagi Iss shahri yaqinida Fors podshosi Doro III va Makedoniya podshosi Aleksandr o’rtasida dastlabki yirik jang bo’lib o’tdi.

Jang maydoni noqulay bo’lganligi sababli forslar butun boshli qo’shinni ishga sola olmaydilar. Jang og’ir bo’ldi va yakunda Eron qo’shini tor-mor keltirildi. Aleksandr shohning barcha aravalarini egalladi, ularning orasida Doro III ning oilasi ham bor edi.[5]



Aleksandr Makedonskiy Misrda. Aleksandr yurishni Finikiyadan janubga qarab davom ettiradi. mil.avv. 332-yilda Aleksandr Misrga yurish qildi. Misrliklar Makedon qo'shinlarini xursandchilik bilan kutib oldilar. Misrdagi Eron satrapi Aleksandrga qarshilik ko'rsatish o'rniga unga xayrixohlik bildirdi va kohinlar bilan birga Aleksandni kutib olgani chiqdi. Misrliklar Eron asoratidan qutulganlariga xursand edilar. Ulaning xursand bo'lishiga yana bir sabab Aleksandrning Misr xudolariga qurbonlik qilish haqida buyruq berganligi va Misr kohinlaridan bu diniy rusum qanday bajarilishi haqida so'raganligi bo'ldi. Nafaqat oddiy Misr ahli, balki, zodagonlar va kohinlar ham yosh Aleksandrning Misr dini va urf-odatlariga muhabbatini ko'rib xursand bo'lganlar. Kohinlar

Aleksandrni fir'avn deb e'lon qildilar va o'z-o'zidan Aleksandr quyosh xudosi Amon-Raning o'g'liga aylandi.[1]

Gavgamel jangi (mil.avv. 331-yil). Iss jangida mag'lub bo'lganidan keyingi yillar davomida Doro III armiyasiga askarlarni ehtiyotkorlik bilan tanladi. Yangi armiyaning otliq qo'shini ayniqsa kuchli edi. Lekin, piyoda askarlaming oldingi qatori kuchsiz edi. Doro III Gavgamel jangida qo'llagan rejasi bo'yicha otliq qo'shinlar Aleksandr qo'shinlarini o'rab olishga umid qildi. Doroning ehtiyotkorlik bilan qilgan tadbirlariga qaramasdan Gavgamel jangi natijasi ham Issga o'xshash bo'ldi. Jangda Aleksandr otliq qo'shini Fors armiyasining markaziga hujum qildi. Doro III jang maydonini tark etdi va Eronning sharqi tomon qochadi.

Doroning o'limi (mil.avv . 330-yil). Aleksandr Doro III Baqtriyaga, hozirgi Afg'onistonga, yetib olmasidan avval xalaqit qilishga umid qildi va uni ta'qib etishni davom ettirdi. Biroq, sharqiy satrapliklardagi siyosiy to'da boshligi Baqtriya satrapi Bess tomonidan mil. avv. 330-yilda Doro III o'ldirildi. Afsuski, Bess Baqtriyaga qochdi va u yerda Artakserks IV nomi bilan Fors taxtiga o'tirdi.[4]

Aleksandrning keyingi harakatlari So'g'diyona va Baqtriya uchun bo'ldi. Aleksandr Amudaryodan kechib o'tda va o'zining harbiy yurishlarini boshlab yubordi. Amudaryodan o'tish chog'ida ustoz Aristotelni maslahatini ham unutmadi. Harbiy yurishlari davrida Maroqand shahrini qamal qildi va u yerga o'z qo'shinini qoldirib Kirapolish shahrini egallash uchun jo'nab ketdi. Lekin unga qarshi So'g'diyonalik mashhur sarkarda Spitaman qo'zg'alon ko'tardi. U Aleksandr bilan deyarli teng darajada jang qildi. Ular o'rtasida so'ngi to'qnashuv mil.avv 328-yil bo'lib o'tdi. Jangda Spitaman mag'lubiyatga uchrab chekindi va hoyinlarcha o'ldirildi. So'g'diyona va Baqtriya hudulari bundan tashqari qolgan hudular ham Aleksandr hokimiyati ostiga o'tdi.

Hindiston va orzuning oxiri. Mill.avv 327-yil Aleksandr Makedonskiy qo'shinlari



dastlab Hind vodiysidagi Panjobga kiradi. U tarqoq holda bo'lgan hind knyazlaridan ma'lum qismini o'z tomoniga og'dirdi. Panjob o'lkasida Aleksandr Makedonskiyga taniqli hind sarkardasi Por qarshilik ko'rsatdi. Gidasp jangida makedon va hind qo'shinlari to'qnash keldilar. Hind armiyasirning asosiy yutug'i jangovar fillarning mavjud bo'lganligi edi. Makedonlarning kuchli otliq qo'shinlaridagi otlar fillardan qo'rqar edi. Biroq, Aleksandr Makedonskiy buyrug' bilan askarlar fillarning orqa tarafidan borib, ularning maxsus oyoq tomirlarini kesib tashlash orqali fillarni zararsizlantirishdi. Shiddatli jang natijasiga ko'ra, makedonlar g'alaba qozonishdi.[4]

Porus va Aleksandr. Jangdan so'ng Porus va Aleksandr o'rtasida ittifoq vujudga keladi. Arrianning takidlashicha: "Xabarlariga ko'ra, Porus: "Menga qirollikcha munosabatda bo'ling, ey Aleksandr!" deb javob bergan. Aleksandr bu ifodadan mamnun bo'lgan shunday dedi: "Men uchun, ey Porus, senga shunday munosabatda bo'lishadi; lekin o'zing uchun ozingga yoqadigan narsani talab qil!" Ammo Porus bunga hamma narsa kiritilganini aytdi. Iskandar bu gapdan yanada ko'proq xursand bo'lib, unga nafakat o'z hindulari ustidan hukmronlik qilish huquqini berdi, balki avvalgisiga qaraganda ancha kattaroq bo'lgan yana bir mamlakatni ham qo'shdi." [2]

Aleksandr Makedonskiy ortiga qaytishga qaror qilar ekan, yangi hududlar orqali qaytishga qaror qildi. Uning buyrug'iga ko'ra, harbiy kemalar qurildi va qo'shin Hind daryosi orqali Hind okeanigacha suzib boradi. Shundan keyin qo'shin ikki qismga bo'linadi. Quruqlikdagi qo'shinga shaxsan Aleksandr Makedonskiy boshchilik qiladi va Gedroziya cho'li orqali ortga qaytadi. Ikkinchi qismi Aleksandrning yordamchisi Nearx boshchiligida kemalarda Hind okeani orqali Fors ko'rfazidan o'tib, Frot orqali Bobilga chiqishi lozim edi. Aleksandr Makedonskiy ulkan imperiya poytaxti etib aynan Bobil shahrini tanladi. Lekin, hech qancha vaqt o'tmay mash'um voqea sodir bo'ldi. mil. avv. 323-yil 29-may kuni bo'lgan bazmda Aleksandr Makedonskiy o'z askarlari tomonidan zaharlandi. Ikki haftalik og'ir betoblikdan so'ng, mil. avv. 323-yil 10-iyun kuni Aleksandr vafot etdi. Bobilda vafot etgan paytida, Aleksandr Makedonskiy hali o'ttiz uch yoshga ham to'lmagan edi.[1]

Xulosa.

Aleksandr Makedonskiy harbiy yurishlari davomida o'zining mohir sarkardalik qobiliyatlarini namoyon qila olgan hukumdor sifatida nom qozondi. U harbiy yurishlarida o'ziga xos takitika qo'llay olgan, qo'shinlarini eng yaxshi qurollar bilan



Learning and Sustainable Innovation

ta'minlanlabgina qolmay, ularni mohirlik bilan boshqargan hukmdor hisoblanadi. Qadimgi tarixchi Sun Zi aytganidek: "Har bir sarkarda qo'shinni ruhiy kuchini yaxshi ushlab tura olsa, yer qonuniyatlari, osmon qonuniyatlarni yaxshi bilsa, o'zi ham jangda mohir va jasur bo'lsa, u sarkarda hech qachon mag'lubiyatga uchramaydi" deya ta'kidlagan edi. Aleksandr ham shu qonuniyalarini bilgan sarkarda edi. Uning Sharq mamalakatlariga kirib kelishi natijasida mahalliy madaniyat bilan yunon madaniyati uyg'unlashdi. Shu sababli san'at, ilm-fan, ma'rifa, me'morchilik, harbiy va boshqa sohalarni yangi tarmoqlari paydo bo'ldi. Bu bizni rivojlanib kelayotgan madaniyatimizga yanada ijobiy ta'sir qildi. Yosh bo'lishiga qaramay o'z etiqodi, tuzilgan shartnoma va kelishuvlarga sodiq sarkarda sifatida tarixda qolgan. Ayrimlar Aleksandrning faoliyati va harbiy san'atini ijobiy baholasalar, boshqalar uni bosqinchi sifatida e'tirof etishadi. Lekin biz tarixchilar ushbu shaxsning faoliyatiga bir yoqlama fikr bera olmaymiz. Chunki bu sarkarda davlatchilik munosabatlarida o'ziga xos yorqin iznini qoldirgan. Shu bois, uning bizga qoldirgan madaniy me'rosini o'rganishimiz uni tahlil qilishimiz, xato va kamchiliklarini o'rganib kelajak avlodga tortiq qilishimiz kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. D.J. Urakov, R.N. Tursunov, A.A. Biykuziyev, B.B. Xaynazarov Jahon tarixi /o'quv qo'llanma/. - Toshkent: "Innovatsiya-Ziyo", 2020
2. Arrianning "Aleksandrning Anabazisi" Gutenberg elektron kitobi loyihasi,
3. Фафур Гулом номыдаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1988 й (Тарж.)
4. Rajabov R. R. Qadimgi dunyo tarixi. (Sharq, Yunoniston, Rim). T. "Fan va texnologiya", 2009, 440 bet.
5. World History Encyclopedia <https://www.worldhistory.org>